| | |
|---|---|
| | 10. Talat Tekin. Orhon Türkçesi Grameri. – Ankara, 2000.<br><br>**Axborot manbalari**<br>1. www.gov.uz – O‘zbekiston Respublikasi hukumat portali.<br>2. www.lex.uz – O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi.<br>3. www.turfanforschung.com<br>4. www.tonyukuk.com |
| 7 | O‘quv dasturi “Mumtoz filologiya va adabiy manbashunoslik” kafedrasida ishlab chiqilgan va 2021 - yil “27” august dagi “1” – sonli bayonnomasi bilan ma’qullangan.<br><br>O‘quv dasturi Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Kengashining 2021- yil “28” august dagi “1” -sonli bayoni bilan tasdiqlangan. |
| 8 | **Fan/modul uchun mas’ul:**<br>Sodiqov Q. – Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, Mumtoz filologiya va adabiy manbashunoslik kafedrasi professori, filologiya fanlari doktori |
| 9 | **Taqrizchilar:**<br>Rustamiy S. – O‘zbekiston Xalqaro Islom Akademiyasi dotsenti, filologiya fanlari doktori<br>Joraboyev O. – O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Alisher Navoiy nomidagi Adabiyot muzeyi katta ilmiy xodimi, filologiya fanlari nomzodi |



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**
**OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI**

**TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI**

**“TASDIQLAYMAN”**
Rektor G.Rixsiyeva

2021 yil “28” august

# YOZMA YODGORLIKLAR TILI

## FANNING O‘QUV DASTURI

| | | |
|---|---|---|
| **Bilim sohasi:** | 200000 | – San’at va gumanitar fanlar |
| **Ta’lim sohasi:** | 230000 | – Tillar |
| **Mutaxassislik:** | 70230102 | –Mumtoz filologiya (sharq tillari bo‘yicha) |

Toshkent – 2021

| | |
|---|---|
| | ***ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.*** |
| **4** | **VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:**<br>• ma'ruzalar;<br>• interfaol keys-stadilar;<br>• seminarlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar);<br>• guruhlarda ishlash;<br>• taqdimotlar qilish;<br>• individual loyihalar;<br>• jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar. |
| **5** | **VII. Kreditlarni olish uchun talablar:**<br>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni topshirish. |
| **6.** | **Asosiy adabiyotlar**<br>1. Содиқов Қ. Эски ўзбек ёзма адабий тили. Ўқув қўлланма. Тошкент, 2020. 592 б.<br>2. Содиқов Қ. Эски ўзбек ёзма адабий тили. Ўқув қўлланма. – Тошкент, 2020.<br>3. Содиқов Қ. Туркий ёзма ёдгорликлар тили: адабий тилнинг юзага келиши ва тикланиши. Ўқув қўлланма. – Тошкент, 2006.<br>4. Sodiqов Q. Turkiy til tarixi. O'quv qo'llanma. – Toshkent, 2009.<br><br>**Qo'shimcha adabiyotlar**<br>1. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – Toshkent: O'zbekiston, 2017.<br>2. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2016.<br>3. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – Toshkent: O'zbekiston, 2017.<br>4. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan quramiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2017.<br>5. Маҳмудов Қ. Ўзбек тилининг тарихий фонетикаси. – Тошкент, 2004.<br>6. Рустамий С. "Девону луғоти-т-турк"даги лингвистик атамалар. Монография. – Тошкент, 2006.<br>7. Содиқов Қ. Кўк турк битиглари: матн ва унинг тарихий талқини. Ўқув қўлланма. – Тошкент, 2004.<br>8. Содиқов Қ. Эски туркий ёзувлар. Ўқув қўлланма. – Тошкент, 2009.<br>9. Jonas Eckmann. Harezm, Kıpçak ve Çağatay Türkçesi Üzerine Araştırmalar. Yayıma Hazırlayan O.F. Sertkaya. – Ankara, 2003. |

orqali talabalar bilimini oshirish, masalalar yechish, mavzular bo‘yicha taqdimotlar va ko‘rgazmali qurollar tayyorlash, normativ-huquqiy hujjatlardan foydalanish va boshqalar tavsiya etiladi.

**IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar**

– Yozma yodgorliklar tilini o‘rganish metodologiyasi.
– Turkiy yozma yodgorlikla tilida kelishiklarnini stilistik xususiyatlari.
– Urxun bitiglarining til va uslubiy o‘zgachaliklari.
– Uyg‘ur yozuvli budda, moniy matnlarining uslubi. “Sutra uslubi” tushunchasi.
– Turkiy tilda bitilgan yorliqlar va ularning uslubi.
– “Qutadg‘u bilig”, “Devonu lug‘atit turk”, “Hibatu-l-haqoyiq” asarlari tilining o‘ziga xos xususiyatlari.

Mustaqil topshiriqlar biror davrga tegishli yozma yodgorlikning tili xususiyatlarini o‘rganishga bag‘ishlanadi. Bular:

Ko‘k turk bitiglarining til xususiyatlari.

Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘ati-t-turk” asarini o‘qib o‘rganish. “O‘g‘uzxoqon” dostonini o‘qib o‘rganish. Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asaridan olingan boblarni o‘rganish.

Rabg‘uziyning “Qisasi Rabg‘uziy” asarining til xususiyatlari.

Oltin O‘rda xonlari bitgan yorliqlarni o‘rganish. Temuriylar zamonidan qolgan rasmiy yorliqlarni o‘qib o‘rganish.

Talabalar mustaqil topshiriqlarni tayyorlash jarayonida quyidagi ko‘rsatmalardan foydalanishlari tavsiya etiladi:

– darslik, o‘quv va uslubiy qo‘llanmalar, ma’ruza matnlari va dars yo‘rig‘laridan kurs mavzularini o‘rganish;
– yozuvning paydo bo‘lishi bilan bog‘liq mavzularni o‘zlashtirish;
– ko‘k turk xatidagi matnlarni tahlil qilish;
– eski uyg‘ur va arab xatidagi yodgorliklarni o‘qib o‘rganish.

3

**V. Ta’lim natijalari / Kasbiy kompetensiyalari**

**Talaba bilishi kerak:**

- turkiy yozma yodgorliklar tili bo‘yicha turkshunoslikdagi turli nuqtai nazarlar, ilmiy tortishuvlarni;
- turkiy yozma yodgorliklar tili va uning adabiy til tarixida tutgan o‘rni haqida ***tasavvurga ega bo‘lishi;***
- yozma yodgorliklarning leksik-semantik, fonetik, morfologik, sintaktik-stilistik xususiyatlarini ***bilishi va ulardan foydalana olishi;***
- turkiy yozma yodgorliklar bo‘yicha tadqiqotlar olib borish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi;
- turkiy yozma yodgorliklarni o‘qib, matn ma’nosini to‘g‘ri anglashi va hozirgi o‘zbek tiliga o‘gira olishi;
- klassik turkiy matnlardagi, adabiy asarlardagi ilg‘or g‘oyalarni, kishilik yuksalishiga xizmat qiluvchii fikrlarni uqib, ularni to‘g‘ri talqin qila olish



| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| **Fan/modul kodi** YYT104 | **O‘quv yili** 2021-2022 | **Semestr** 1 | **ECTS - Kreditlar** 4 | |
| **Fan/modul turi** Majburiy | **Ta’lim tili** O‘zbek | | **Haftadagi dars soatlari** 4 | |
| 1 | **Fanning nomi** | **Auditoriya mashg‘ulotlari (soat)** | **Mustaqil ta’lim (soat)** | **Jami yuklama (soat)** |
| | Yozma yodgorliklar tili | 60 | 60 | 120 |

2

**I. Fanning mazmuni**

“Yozma yodgorliklar tili” fanining asosiy maqsadi – mumtoz o‘zbek adabiyoti tarixida yaratilgan asarlarni o‘qish va ularni tadqiq etish, turkiyiy yozma yodgorliklar tili haqida bilim, ko‘nikma, malakani shakllantirish. Turkiy yozma yodgorliklar tili bo‘yicha fanda turli qarashlar mavjud. Bunday qarashlar, ilmiy tortishuvlardan bo‘lg‘usi magistrlar xabardor bo‘lmoqligi kerak. Shuning uchun ham mumtoz filologiya mutaxasisligining o‘quv rejasiga “Yozma yodgorliklar tili” fani kiritilgan.

**II. Asosiy nazariy qism (ma’ruza mashg‘ulotlari)**
**II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzullar kiradi:**

**1-mavzu. “Yozma yodgorliklar tili” fanining mazmuni, predmeti**

Fanning mazmuni. “Yozma yodgorliklar tili” fanining maqsad va vazifalari. Fanning o‘rganish doirasi. Uning boshqa fanlar qatorida tutgan o‘rni.

**2-mavzu. “Yozma yodgorliklar tili” fanining metodlari**

Turkiy tillar tarixida matn bitish an’analarining yuzaga kelishi. Yozma adabiy til o‘lchovlarining yuzaga kelishi va taraqqiyoti. Ular bilan bog‘liq masalalar.

**3-mavzu. Turkiy yozma yodgorliklar tilining fonetik xususiyatlari**

Turkiy yozma yodgorliklar tilining fonetik tizimi bilan bog‘liq nazariy masalalar, turkshunoslikdagi ilmiy qarashlar. Adabiy til tarixida, yozma tilda fonetik o‘lchovlarning yuzaga kelishi. Yozuv va uning fonetik o‘lchovlarni tartibga tushirishdagi o‘rni. Belgi va tovush munosabatlari.

**4-mavzu. Qadimgi turkiy yozuvlar**

Qadimgi turkiy yozuvlar va ularning turkiy til fonetik tizimini ifodalashdagi o‘rni. Yozuvda unlilarning ifodalanuvi. Undoshlar tizimining yozuvda aks etishi. Turkiy singarmonizm masalalari.

**5-mavzu. Turkiy yozma yodgorliklar tilida fonetika bilan bog‘liq**

**nazariy masalalar**

Matnda fonetik qonuniyatlarning aks etishi. Imlo xususiyatlari. Ko‘k turk bitiglari, uyg‘ur, moniy, arab yozuvlaridagi eski bitiglar imlosi. Yozma yodgorliklarda savodxonlik masalalari.

**6-mavzu. Turkiy yozma yodgorliklar tilining morfologik xususiyatlari va u bilan bog‘liq nazariy masalalar**

Turkiy yozma yodgorliklar tilining morfologik tizimi bilan bog‘liq nazariy masalalar, turkshunoslikdagi ilmiy qarashlar.

Morfemika masalalari. So‘zning morfem qurilishida tarixiylik. So‘z yasalishi. Morfonologiya.

**7-mavzu. Turkiy yozma yodgorliklar tilida ot so‘z turkumi**

Yozma yodgorliklar tilida so‘z turkumlari. Ot va uning grammatik o‘zgachaliklari bilan bog‘liq nazariy masalalar. Ko‘plik. Egalik. Kelishik kategoriyasi. Unutilgan kelishik qo‘shimchalarining hozirgi o‘zbek va boshqa turkiy tillardagi qoldiqlari.

**8-mavzu. Turkiy yozma yodgorliklar tilida sifat, son va olmosh so‘z turkumi**

Sifat va uning muhim belgilari.

Son turkumining tarixiy taraqqiyoti. Son turlari. Numerativlar va ularning tarixiy taraqqiyoti.

Olmosh va uning turlari. Olmoshlarning matn uslubidagi o‘rni. Olmosh turkumiga kiruvchi so‘zlarning etimologiyasi.

**9-mavzu. Turkiy yozma yodgorliklar tilida fe’l so‘z turkumi**

Fe’l va uning kategoriyalari. Fe’lning sifatdosh formalari, ularning yasalishi. Ravishdosh. Masdar alomati. Fe’lning buyruq shakli. Bo‘lishsizlik. Fe’llarda shaxs-son ko‘rsatkichi. Shart ko‘rsatkichi. Fe’l nisbatlari. O‘tgan zamon fe’li. Hozirgi zamon fe’li. Kelasi zamon fe’li. Fe’llarning yasalishi bilan bog‘liq nazariy masalalar.

**10-mavzu. Turkiy yozma yodgorliklar tilida ravish va yordamchi so‘z turkumlari**

Turkiy yozma yodgorliklar tilida ravish va uning turlari. Ravishlarning yasalishi. Yordamchi so‘zlar. Qadimgi turkiy tilda qo‘llangan bog‘lovchilar. Ko‘makchi so‘zlar. Yuklamalar.

**11-mavzu. Turkiy yozma yodgorliklar tilining sintaktik-stilistik xususiyatlari**

Turkiy yozma yodgorliklar tilining sintaktik va stilistik xususiyatlari bilan bog‘liq nazariy masalalar, turkshunoslikdagi ilmiy qarashlar.

So‘z birikmasi: otli va fe’lli birikmalar. *Turk bo‘dun, tabg‘ach bo‘dun* tipidagi birikmalar va ularning sintaktik izohlari.



**12-mavzu. Turkiy yozma yodgorliklar tilida gap va uning turlari**

Sodda gap va uning turlari. Gapning ifoda maqsadiga ko‘ra turlari. Qadimgi turkiy tilda gap qolipi. Qadimgi matnlarda gap chegarasini aniqlash masalasi. Gapning bosh bo‘laklari. Ega va uning ifodalanishi. Turkiy tillarda kesim masalasi. Kesimning tarixiy ko‘rinishi. Ikkinchi darajali bo‘laklar: aniqlovchi, to‘ldiruvchi, hol. Gapning uyushiq bo‘laklari. Qo‘shma gaplar va ularning turlari: bog‘lovchili va bog‘lovchisiz bog‘langan qo‘shma gap, ergashgan qo‘shma gap. Bir necha ergash gapli qo‘shma gap. Qadimgi turkiy yodgorliklar tilida ko‘chirma gap. Ko‘chirma gap va muallif gapi, ularning ko‘rinishlari.

**13-mavzu. Matn stilistikasi va uslub turlari**

Matn stilistikasi. Yozma til uslublari. Badiiy uslub, rasmiy uslub, ilmiy uslub. Ularning kelib chiqishi va tarixiy taraqqiyoti. Yozma til uslublarining ayirib turuvchi belgilari. Badiiy uslubning leksik, morfologik, sintaktik o‘lchovlari.

**14-mavzu. Rasmiy uslub**

Rasmiy uslubning leksik, morfologik, sintaktik o‘lchovlari. Rasmiy matnlarning tuzilishi, matn komponentlari.

**15-mavzu. Ilmiy uslub**

Ilmiy uslubning leksik, morfologik, sintaktik o‘lchovlari. Ilmiy atamalar.

## III. Amaliy mashg‘ulotlar bo‘yicha ko‘rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg‘ulotlarda ilmi toliblar kursning muhim qirralarini amaliy jihatdan o‘rganishga e’tibor qaratadilar.

Amaliy darslarda ko‘zda tutilgan mavzular:

- Yozma yodgorlik tili va adabiy til.
- Yozma yodgorlik tili va dialektlar masalasi.
- Yozma adabiy til uslublari.
- Badiiy uslub va yozma yodgorlik tili.
- Rasmiy uslub: uning shakllanishi va taraqqiyoti.
- Ilmiy uslub: shakllanishi va taraqqiyoti.Yozma yodgorlikda qo‘llangan badiiy san’atlar.
- Matn va uning yozuv xususiyatlari.
- Yozma yodgorlik tekstologiyasi.

Amaliy mashg‘ulotlarini tashkil etish yuzasidan kafedra tomonidan ko‘rsatma va tavsiyalar ishlab chiqiladi. Unda talabalar asosiy ma’ruza mavzulari bo‘yicha olgan bilim va ko‘nikmalarini qo‘lyozma va toshbosma matnlar o‘qish orqali yanada boyitadilar. Shuningdek, darslik va o‘quv qo‘llanmalar asosida talabalar bilimlarini mustahkamlashga erishish, tarqatma materiallardan foydalanish, ilmiy maqolalar va tezislarni chop etish